## Maktabgacha ta’lim

*5111800 – Maktabgacha ta’lim* maktabgacha ta’lim muassasalari va kasb-hunar kollejlari uchun maktabgacha ta’lim muassasalariga ixtisoslashgan kasb-hunar kollejlari o‘quvchilarini o‘qitish va tarbiyalash metodlari, o‘kuv-tarbiya jarayoni, o‘qitishning pedagogik texnologiyalari va metodlari bo‘yicha o‘qituvchi tayyorlash jarayonida foydalaniladigan fanlar, pedagogik faoliyat vositalari, usullari, metodlari yig‘indisidan iborat bo‘lgan ta’lim yo‘nalishidir.

### ***5111800 – Maktabgacha ta’lim*** ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining tavsifi

**4.1 Bakalavrning kasbiy faoliyat sohasi**

***5111800 – Maktabgacha ta’lim*** maktabgacha ta’lim muassasalari va kasb-hunar kollejlari uchun maktabgacha ta’lim muassasalariga ixtisoslashgan kasb-hunar kollejlari o‘quvchilarini o‘qitish va tarbiyalash metodlari, o‘kuv-tarbiya jarayoni, o‘qitishning pedagogik texnologiyalari va metodlari bo‘yicha o‘qituvchi tayyorlash jarayonida foydalaniladigan fanlar, pedagogik faoliyat vositalari, usullari, metodlari yig‘indisidan iborat bo‘lgan ta’lim yo‘nalishidir.

**4.2 Bakalavrlarning kasbiyfaoliyati obyektlari**

***5111800 – Maktabgacha ta’lim*** ta’lim yo‘nalishibakalavrlarning kasbiy**faoliyati obyektlari –** maktabgacha ta’lim muassasalari, kasb-hunar kollejlari va maktabdan tashqari ta’lim muassasalari, o‘quvchilar, o‘quv-tarbiya jarayoni, o‘qitishning pedagogik texnologiyalari, metodlari va usullari.

**4.3 Bakalavrlarning kasbiy faoliyati turlari**

***5111800 – Maktabgacha ta’lim*** ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr o‘z psixologik-pedagogik, kasbiy tayyorgarligiga muvofiq quyidagi kasbga oid faoliyat turlari:

- *o‘qituvchilik*;
- *tarbiyachilik*;
- *o‘quv-metodik;*
- *boshqaruvchilik*;
- *ma’rifiy ishlar*;
- *ilmiy-tadqiqot*muassasalarida kichik ilmiy xodim vazifalarini bajarishi mumkin.

Bakalavr tayyorlanadigan kasbiy faoliyatning muayyan turlari ta’lim jarayonining manfaatdor ishtirokchilari bilan hamkorlikda oliy ta’lim tizimi tomonidan aniqlanadi**.**

### 4.4 Bakalavrlar kasbiy faoliyatining vazifalari

***5111800 – Maktabgacha ta’lim*** ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr ta’lim dasturini o‘zlashtirish natijasida kasbiy tayyorgarlikning asosiy turlari va maxsus tayyorgarligiga mos quyidagi kasbiy vazifalarni yechishi kerak:

- ***o‘qituvchilik:***maktabgacha ta’limga ixtisoslashgan kasb-hunar kollejlari o‘qituvchisi;

- ***tarbiyachilik*:**maktabgacha ta’lim muassasalarida tarbiyachi;

- ***o‘quv-metodik***: shu yo‘nalish bo‘yicha ta’lim tizimini boshqaruvchi vazirliklarning metodik kabinetlarida, uning tarmoq boshqarmalari va muassasalarida metodist bo‘lib ishlash.

- ***boshqaruvchilik****:*maktabgacha ta’lim muassasalarida, maktabgacha ta’lim psixologik xizmat markazlarida maslahatchi;

- ***ma’rifiy ishlar****:*ota-onalar uchun maslahat markazlarida;

***ilmiy-tadqiqot***muassasalarida kichik ilmiy xodim vazifalarini bajarishi mumkin.